

O'ZBEK TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMINING O'RGANILISHI VA DERIVATSIYASI

Karimova Sevinch

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi.

Sevinchkarimova570@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15274732>

Annotatsiya. Ushbu maqolada sifatning kelib chiqish tarixi tadqiqotchi olimlar fikrlari orqali isbotlab beriladi, tilda ishlatilish holatlari keltiriladi va uning derivatsion holatlari misollar yordamida ochib yoritiladi. Serunum va kamunumli sifat qo'shimlaridan yasalgan so'zlar izohi, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" kitobidan sifatning kelib chiqish tasnifi, E.V. Sevortyanning sifat so'z turkumi bo'yicha ilmiy qarashlari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: sifat va uning UGMsi, derivatsion holati, affiksatsiya, kompozitsion usullari.

THE STUDY AND DERIVATION OF THE ADJECTIVE WORD CLASS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article provides evidence of the history of the origin of the adjective through the opinions of research scholars, provides examples of its use in the language, and explains its derivational cases with the help of examples. An explanation of words formed from serunum and kamunumul adjective compounds, a classification of the origin of adjectives from the book "Devonu lug'otit turk" by Mahmud Kashgari, and E.V. Sevortyan's scientific views on the adjective word class are presented.

Keywords: adjective and its UGM, derivational case, affixation, composition methods.

ИЗУЧЕНИЕ И ОБРАЗОВАНИЕ КЛАССА ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье представлена история происхождения прилагательного через мнения ученых-исследователей, приведены случаи его употребления в языке, а также объяснены случаи его словообразования на примерах. Объяснение слов, образованных от прилагательных с серунумом и камунумом, классификация происхождения прилагательных из книги Махмуда Кашгари «Девону луготит турк», и Э.В. Представлены научные взгляды Севортяна на семейство прилагательных.

Ключевые слова: прилагательное и его УГМ, деривационный статус, аффиксация, способы словосложения.

Sifat so'z turkumi narsa predmet va hodisalarning belgisini bildirish sifatning semantik asosidir. Belgi bildirish xususiyati va farqlanuvchi o'zgachaliklarga egadir.

Sifatning UGMsini “asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba’zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish” ko‘rinishida tiklash mumkin. Turkiy tillarda sifat tarixan morfologik ko‘rsatkichi uncha taraqqiy etmagan so‘z turkumi sanaladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra sifat dastavval mavjud bo‘lmay, keyinchalik ot turkumidan o‘tib chiqqan va shakllanib rivojlangan. E.V.Sevortyaning ta’kidlashicha sifatning otdan differentsiatsiylanish jarayoni ancha ilgari davrlardan boshlangan. V-VIII asrlarga kelib ancha keng tus olgan. Ayrim formulalar ot va sifat uchun mushtarak bo‘lgan, ayrimlari faqat sifatgagina tegishli bo‘lgan, ayrimlari faqat sifatgagina tegishli bo‘lgan, lekin keyingi davrlarda taraqqiy etmagan. Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlarida boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa bo‘lib, bu jarayon hanuz davom etmoqda. Bundan hamma sifat ham otdan ajralib chiqqan, degan fikr kelib chiqmasligi kerak.

Chunki sifat mustaqil kategoriya sifatida ajralib chiqqandan so‘ng bu turkum tarkibiga yangidan qo‘shilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama so‘zlar yasovchi affiksalar mavjudki, ularning kelib chiqishi va tabiati hozircha aniqlangan emas.

Mahmud Koshg‘ariy quydagicha tasnif kiritgan:

1. Ismlar

2. Fe‘l.

Yordamchi so‘zlar va alohida olingan so‘z turkumlari. Ismlar: ot, sifat, son, va ravishga bo‘lib o‘rgangan. “Devonu lug‘otit turk” ushbu asar turkiy tillar tarixidagi ilk grammatik asar bo‘lib hisoblanadi. XI asrda vujudga kelgan. “Ashtadxyai” (Grammatik qoidalarining sakkiz bo‘limi) asari maydonga keldi. Olmoshlar va sifatlar alohida so‘z turkumlariga ajratmay, ot va fe‘l turkumlariga qo‘shib yuborilgan. Ushbu asar Panini tegishli hisoblanadi. Er.avv.XV asrda vujudga kelgan. Bundan ko‘rinadiki sifat tarixi alohida o‘ranilmagan. Shunga qaramay ma’lumotlar talaygina. Ammo sifat tarixi haqida emas tasnifi haqida...

Sifat derivatsiyasi. Ikki xil usul bilan yasaladi: 1. Affiksatsiya usuli. O‘zbek tilida sifat yasovchi affiksalar anchagina. Ularni birma-bir sanab o‘tamiz. 1. ot+li daftarli, do‘ppili, ruchkali a) yasash asosi otdan anglashilgan narsaga egalikni, o‘sha narsaning borligi, mavjudligini bildiradi, b) yasash asosidan anglashilgan narsaning odatdagidan ko‘ra ko‘pligi, mo‘lligi, ortiqqligini bildiradi: aqlli, suvli, toshli kabi; mavhum otlarga ham shundan anglatgan sifat yasaladi: mehrli, tartibli, mushohadali kabi; aynan shu ma’nolarda egalik, mavjudlik, ortiqqlik anglatganda ser, dor, ba qo‘shimchalari bilan sinonim bo‘lib keladi; G‘ayratli-serg‘ayrat, unumli-serunum kabi; li qo‘shimchasi serunum qo‘shimcha hisoblanadi. 2. Siz qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha juda unumli bo‘lib, yasash asosi bilan bog‘liq ravishda belgi, xususiyat, holat kabi xilma-xil ma’nolarni bildiruvchi sifat yasaydi. A) yasash asosidan anglashilgan narsaga ega emaslikni, uning yo‘qligini bildiradi: pulsiz, ruchkasiz, olmasiz kabi; b) yasashdan anglashilgan

narsa, holat kamligini bildiradi: aqlsiz, tarjibasiz, kuchsiz kabi; c) narsa buyumning ortiqqligini, shu xususiyat uning doimiy belgisiga aylanganligi ma'nolarini bildiradi: cheksiz (dengiz) poyonsiz (cho'l) kabi; siz qo'shimchasi ba'zan be, no qo'shimchalari bilan sinonim bo'ladi: poyonsiz-bepoyon. Li, ba, bo, ser, dor, mand qo'shimchalari asosdan ifodalangan belgiga egalikni bildiradi. 3.Sifat+chan=asosdan anglashilgan xususiyatga moyillikni bildiruvchi sifat (ko'ngilchan, uyatchan, harakatchan). 4. Fe'l +choq, chiq, chak=asosan anglashilgan harakatni bajarishga moyillikning kuchliligini bildiruvchi sifat (qizg'anchiq, Sevinch qizg'anchiq qiz ekan.) 5.Ma qo'shimchasi unumli bo'lib fe'l asosiga qo'shilib, shaxs va narsaning harakat-holat bilan bog'liq belgi xususiyatni bildiradi: qaynatma, ulama, yasama kabi; 6.Aki qo'shimchasi kamunum bo'lib, ot,sifat,ba'zan taqliq so'zlardan sifat yasaydi: qalbaki,og'zaki,jizzaki kabi. 7.Vor qo'shimchasi kamunum bo'lib, qiyoslash ma'nosidagi sifat yasaydi: tantanavor, devonavor. Ustoz tantanavor so'z aytdi. 8.ildoq (il+doq) qo'shimchasi kamunum bo'lib taqlid so'zlardan sifat yasaydi: shaqildoq, liqildoq, bijildoq kabi; 9. Manbalarda keltirishicha "no" qo'shimchasi sifatdan sifat yasaydi: noto'g'ri kabi;10. Simon qo'shimchasi o'xshashlikni bildiruvchi sifat yasaydi. Gulsimon, odamsimon kabi; 11. Ba, bo, ser, no qo'shimchalari fors-tojik tillaridan kirgan bo'lib, o'zakdan oldin qo'shiladi va ular old qo'shimchalar deyiladi. Boobro', serunum kabi;

Kompozitsiya usuli. Bu usuli qo'shma va juft sifat hosil bo'ladi: Qo'shma sifat. Bular quyidagi qolipda bo'ladi:

Ot+ot: dilozor, devqomat, sohibjamol, Kamol o'z xasisligi tufayli kafangado bo'ldi.

Sifat+ot: balandovoz, kaltafahm, Nodira balandovozda she'r o'qidi.

Ot+sifat: xonavayron, xudobezor, jig'ibiyron, Marjona jig'ibiyron edi.

Ravish +ot: kamhosil, kamquvvat.

Fe'l+ fe'l: yebto'ymas;

Olmosh+ot: butunjahon, umumxalq, umumjahon.

Olmosh+sifat: o'zbilarmon;

Ot+fe'l: tinchliksevar, ishyoqmas, mehnatsevar.

Son +fe'l: beshotar, to'rtotar.

Juft sifatlar har ikki qismi mustaqil ishlatiladigan juft sifat bor.

a) Qismlari sinonim: aql-hushli, so'g'-salomat, yakka-yolg'iz;

b) Qismlari antonim: achchiq-chuchuk, baland-past, vayron-obod, issiq-sovuq;

c) Qismlari ma'noviy yaqin: mo'min-qobil, och-yang'och, soya-salqin, xor-zor, ezma-churuk. Bir qismi mustaqil holda ishlatiladigan.

Aralash-quralash, mast-alast, ilma-teshik, tuppa-tuzuk, entak-tentak, xom-xatala, qora-qura, yamoq-yasoq har ikkala qismi mustaqil holda ishlatilmaydigan sifat: aji-buji, aloq-chaloq, poyintar-soyintar, uvali-juvali, o‘poq-so‘poq, ilang-bilang.

Boshqa turkumga xos so‘z konversiya yo‘li bilan sifatga o‘tishi mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo‘lib, boshqa so‘z turkumi davr o‘tishi bilan sifatga aylanib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sifat tilimizda eng ko‘p uchraydigan so‘z turkumlardan biri hisoblanadi. Uning yasaliş usullari juda ham turli bo‘lib, albatta, u haqida tilshunoslar haligacha to‘liq o‘rganib chiqishgani yo‘q. Chunki sifat derivatsiyasi shunchaki ulkanki, uni o‘rganib chiqish uchun bir yoki bir necha kishining umri yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun hozirda bizning oldimizda turgan maqsad bu haqida kengroq o‘rganib va mushohada olib borib hali ochilmagan qirralarini yoritib berishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Ra‘no Sayfullayeva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent 2009.
2. Nargiza Erkaboyeva “O‘zbek tilidan ma‘ruzalar to‘plami” Toshkent 2021.
3. Xurshida Marselovna Qodirova “Turkiy tillarda sifat so‘z turkumi” maqolasi.
4. ziyo.uz.
5. A. Abdullayev, Q. Begmatov, Sh. Voxibov “Sifat derivatsiyasi” maqola.